



## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 971,9 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.


### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi

(2019-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1 971,9</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2 047,5
Qurilish	2 530,2
Savdo	2 441,0
Tashish va saqlash	1 543,5
Axborot va aloqa	2 004,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	3 526,4
Ta'lim	1 860,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 671,1
Boshqa faoliyat turlari	2 082,4

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2 515,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,5 %**), Guliston shahrida **2 215,2** ming so'mni (**112,3 %**) va Yangiyer shahrida **2 118,5** ming so'mni (**107,4 %**) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 468,2** ming so'mni (**74,5 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019-yil yanvar-dekabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




**Ma'lumot uchun:** Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1-sentyabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018-yil Yan- var-dekabr	2019-yil Yan- var-dekabr	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1540,1</b>	<b>1971,9</b>	<b>128,0</b>
Guliston sh.	1667,8	2215,2	132,8
Shirin sh.	1972,2	2515,0	127,5
Yangiyer sh.	1643,1	2118,5	128,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1390,7	1829,6	131,6
Boyovut	1297,9	1817,2	140,0
Guliston	1366,1	1725,8	126,3
Sayhunobod	1639,5	2030,5	123,8
Mirzaobod	1312,8	1468,2	111,8
Sardoba	1450,2	1791,1	123,5
Sirdaryo	1458,8	1800,1	123,4
Xovos	1444,4	1904,2	131,8

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019-yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2047,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 5,8 % ga oshdi.


•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2530,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 15,5 % ga oshdi.



•Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1543,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 15,4 % ga oshdi.

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019-yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



•Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2004,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 51,7 % ga oshdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3526,4 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 50,3 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1860,2 ming so'mni tashkil qildi va 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 32,5 % ga oshdi.



•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1671,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 34,7 % ga oshdi.